

O‘ZBEK VA RUS TILLARI IZOHLI LUG‘ATLARIDA FITONIMLARNING BERILISHI

Gulchexra YAKUBOVA,
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchi
gyakubova5@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488961>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va rus tillari izohli lug‘atlarida fitonimlarning qanday taqdim etilishi, ularning semantik doirasi, uslubiy xususiyatlari hamda qiyosiy jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Fitonimlarning semantik doirasi, sinonimik qatlamlari, ramziy ma‘nolari va uslubiy xususiyatlari tadqiq etildi. Natijalarga ko‘ra, rus lug‘atlarida fitonimlarning botanik tavsifi va ilmiy-tasviriy yondashuvi keng yoritilgan bo‘lsa, o‘zbek lug‘atlarida ularning xalq hayoti, urf-odatlarini, marosimlari va tabobatdagi o‘rni ustuvorlik qiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, leksikografiya va madaniyatshunoslikda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan muhim ilmiy manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: fitonim, izohli lug‘at, qiyosiy tahlil, semantika, ramziy ma‘no, milliy-madaniy xususiyat.

Til – insoniyat tafakkuri, madaniyati va hayot tarzining aks-sadosi bo‘lib, unda xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, urf-odatlarini va dunyoqarashi o‘z ifodasini topadi. Leksik qatlam tilning eng dinamik sohasi sifatida doimo yangilanib boradi. Shu jarayonda fitonimlar – o‘simlik nomlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fitonimlar xalqning tabiat bilan bo‘lgan aloqalarini, dorivor va xo‘jalik ahamiyatiga ega o‘simliklarni, shuningdek, ramziy ma‘nolarni yoritadi.

Tilshunoslikda fitonimlarning tadqiqi faqat semantik yoki etimologik tahlil bilan chegaralanmay, balki ularning izohli lug‘atlarda berilish tartibi, ya‘ni xalq til xotirasida qanday qayd etilishi ham dolzarb masaladir. O‘zbek va rus tillaridagi lug‘atlarda fitonimlarni berish tartibi bir qator o‘xshash va farqli jihatlarga ega. Bu esa, o‘z navbatida, ikki til leksikografiyasi o‘rtasidagi qiyosiy tahlil uchun asos yaratadi.

Fitonimlarning leksikografik tadqiqi umumiy tilshunoslik, qiyosiy leksikologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan muhimdir. Fitonimlar xalq etnobotanik bilimlarining asosiy qatlami sifatida qaraladi va ularning izohli lug‘atlardagi talqini milliy madaniyatning barqaror belgilaridan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan, fitonimlar tahlili:

- **semantik tahlil** – ma‘no tuzilmasini ochish, polisemiya va ko‘chma ma‘nolarni aniqlash;
- **etnolingvistik yondashuv** – o‘simlik nomlarining xalq madaniyatidagi o‘rnini belgilash;
- **leksikografik tahlil** – lug‘at maqolalarining tuzilishini, izoh berish uslublarini o‘rganish;

- **qiyosiy tahlil** – ikki til materialini solishtirib, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida rus tilining asosiy izohli lug‘atlaridan, jumladan, S.I. Ojegov va N.Y.Shvedova “Толковый словарь русского языка”, V.I.Dalning “Толковый словарь живого великорусского языка” hamda akademik nashrlardan foydalanildi. O‘zbek tilida esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 jildlik) asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Tahlilda fitonimlarning lug‘at maqolalarida berilishi, ularning izohlari, sinonimik qatlamlari, ramziy va ko‘chma ma‘nolari, shuningdek, foydalanilgan misollar o‘rganildi. Qiyosiy yondashuv usuli asosida ikki til izohli lug‘atlaridagi o‘simlik nomlarining ifodalanishidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlanib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ko‘rsatildi.

Rus tili izohli lug‘atlarida fitonimlarning berilishi. Rus izohli lug‘atlarida fitonimlar keng qamrovli tarzda yoritilgan bo‘lib, ko‘pincha ular ilmiy botanika nomlari bilan uyg‘un holda keltiriladi. Masalan, “берёза” so‘zi Dal lug‘atida nafaqat daraxt turi sifatida, balki rus xalqining ramziy belgisi sifatida ham izohlangan. Shuningdek, Ojegov lug‘atida “роза” so‘zining nafaqat gul turi, balki estetik go‘zallik ramzi sifatidagi ko‘chma ma‘nosi ham berilgan.

Rus tilida ko‘plab fitonimlar xalq qo‘shiqalarida, maqollarda, adabiy asarlarda keng qo‘llanadi. Shu bois lug‘atlarda ularning qo‘shimcha ma‘no qirralari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan, “дуб” so‘zi mustahkamlik va chidamlilik ramzi sifatida, “тополь” esa yolg‘izlik timsoli sifatida qayd etilgan.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida fitonimlarning berilishi. O‘zbek izohli lug‘atlarida fitonimlar, avvalo, xalq hayoti va madaniyati bilan bog‘liq holda yoritiladi. Masalan, “тут” so‘zi nafaqat mevali daraxt nomi sifatida, balki ipakchilikka oid asosiy manba sifatida ham izohlangan. “Chinor” esa uzoq umr va barqarorlik timsoli sifatida qo‘llanadi. Lug‘atda dorivor o‘simliklarga alohida e‘tibor qaratilgan. Masalan, “qizilmiya”, “zarcho‘bay”, “rayhon” kabi birliklarning xalq tabobatidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida ko‘plab fitonimlar xalq og‘zaki ijodida ramziy ma‘noga ega bo‘lib, lug‘atlarda bu jihatlar ham qayd etilgan.

O‘zbek va rus izohli lug‘atlarida fitonimlarning qiyosiy tahlili. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, rus lug‘atlarida fitonimlarning botanik tavsifi, ilmiy nomlanishi va ko‘chma ma‘nolari keng yoritilgan. O‘zbek lug‘atlarida esa xalq hayoti, urf-odatlar, milliy qadriyatlar va tabobat bilan bog‘liq izohlar ustuvorlik qiladi.

Masalan, rus lug‘atlarida “рябина” so‘zi o‘simlik tavsifi va estetik timsol sifatida izohlangan bo‘lsa, o‘zbek lug‘atlarida “rayhon” ko‘proq diniy va marosimiy

ma'noda taqdim etilgan. Bu ikki til lug'atlarida fitonimlarning taqdimoti milliy madaniyat, xalq urf-odatlar va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fitonimlar har ikki tilda ham nafaqat biologik obyekt nomi, balki milliy tafakkur va badiiy obrazlarning muhim bo'lagi sifatida qaraladi. Rus lug'atlarida fitonimlarning ilmiy va poetik qirralariga ko'proq urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek lug'atlarida ularning amaliy hayotdagi qo'llanilishi, xalq tabobatidagi o'rni hamda ramziy ma'nolari yetakchi o'rinda turadi.

Demak, fitonimlarning lug'atlardagi taqdimoti ikki xil leksikografik an'ana – rus tilidagi ilmiy-tasviriy yondashuv va o'zbek tilidagi madaniy-maishiy yondashuvni yaqqol namoyon etadi. Bu farq ikki xalqning tabiatga, o'simliklarga bo'lgan munosabati, ularni qadrlash shakllari va ramziy tushunchalari bilan izohlanadi.

Fitonimlar izohli lug'atlar tarkibida tilning leksik boyligini namoyon etuvchi muhim qatlam hisoblanadi. O'zbek va rus tillarida ular turlicha taqdim etilgan bo'lsa-da, umumiy jihat sifatida har ikkisi ham o'simliklarning nafaqat nomini, balki xalq tafakkuri va madaniyatidagi o'rnini ochib beradi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rus lug'atlarida ilmiy-tasviriy yondashuv, o'zbek lug'atlarida esa milliy-madaniy yondashuv ustuvorlik qiladi.

Mazkur tadqiqot fitonimlarning izohli lug'atlardagi taqdimoti bo'yicha yangi qiyosiy ma'lumotlar berib, tilshunoslik, leksikografiya va madaniyatshunoslik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва: Азбуковник, 2006.
3. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва: Русский язык, 1998.
4. Крысин Л. П. Лексикология современного русского языка. – Москва: Аспект Пресс, 2004.
5. Рахматullayev Sh. O'zbek leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Саттаров Г. O'zbek tilida xalqona leksika. – Toshkent: Fan, 2005.